

2. Клибанова Л. А. Вопросы русской орфографии: Учеб. пособие для иностранных студентов нефилологических факультетов. Кишинёв: Отдел печати КГУ, 1986. С.

3. Рожкова Г. И. Очерки практической грамматики русского языка. М.: Высшая школа, 1978. С. 104.

4. Nadtochiy Elena Dmitrievna Zamonaviy rus tilining imlosini o'rgatishda algoritmlar // V. I. Vernadskiy nomidagi Qrim federal universitetining ilmiy eslatmalari. Filologiya fanlari.

JAMIYATDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH: JAMIYATNING INKLYUZIV TA'LIMGA BO'LGAN MUNOSABATI VA UNING RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHISH

Abdiraximova Sevinch Ilhom qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti talabasi

Annotatsiya. *Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta'lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir.*

Аннотация. *Инклюзивное образование – это процесс, направленный на интеграцию детей-инвалидов в образовательный процесс и адаптацию общеобразовательных школ к детям-инвалидам, основной целью которого является социальная справедливость и равенство.*

Abstract. *Inclusive education is a process that aims to integrate disabled children into the educational process and adapt general education schools to disabled children, with social justice and equality as the main goal.*

Kalit so'zlar. *Inklyuziv ta'lim, sharoit, nogironligi bo'lgan yoshlar, maktab, maxsus ta'lim, ehtiyoj, umumta'lim, integratsiya.*

Ключевые слова. *Инклюзивное образование, условия, молодежь с ограниченными возможностями, школа, специальное образование, потребность, общее образование, интеграция.*

Key words. *Inclusive education, conditions, youth with disabilities, school, special education, need, general education, integration.*

Kirish

Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lim maktablarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi. Buning uchun esa

maktab ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor talablariga to'la javob berishi kerak.

Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lim muasasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lim maktablarining katta bo'lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritadi. Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimda o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi.

Shuningdek ularning o'z oilasidan uzoqda bo'lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda. Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integrasiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqazo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv rejalari tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlari xohlagan maktabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi.

Bolaning nogiron bo'lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lgan. Demak, uning o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart. Inklyuziv ta'limda maktabdagi jismoniy sharoit ham katta o'rin tutadi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, barcha maktablar eshigiga o'quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachalarda yuradigan nogiron bolalar ko'tarila olmaydilar, hatto qo'ltiqtayotqda yuradigan bolalar ham, qiynalishlari mumkin. Demak, zinapoyalardan ham, eshiklardan ham sog'lom bolalar bilan birga nogiron bolalar ham bemalol o'tishlari uchun qulay sharoit yaratilishi shart. Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi. Bolalarni oilasidan, uyidan uzoqda bo'lgan internatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok

etish huquqiga to'sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi.

Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir. Inklyuziv ta'lim ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarni qamraydigan yangi o'qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi. Inklyuziv ta'lim kamsitishlarni oldini olishga yordam beradi. Jamiyatda nogironlarga nisbatan yanglish fikr va munosabat juda yuqoridadir. Ular haqida ma'lumotlarning kamligi va ularni yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim tarbiya berilishi bunga sababa bo'lishi mumkin. Bunday munosabatni yo'qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir.

Lekin tajribadan shu narsa ma'lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta'lim tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o'zlari singari bola ekanliklarni anglab, kasitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi. Bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan muammolardan biri, yani ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan bog'liq, muhim vazifalar va tizimdagi holat xususidagi masaladir.

Xususan, UNICEF hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi inklyuziv ta'lim bo'yicha yangi yo'riqnomalar, standartlar va mexanizmlar sinovdan o'tkaziladigan inklyuziv maktablarni modellashtirishni boshladilar. Bu inklyuziv ta'lim sifatini yanada yuqori standartlarga ko'tarishga qaratilgan yangi qonunchilik va siyosatni ishlab chiqish uchun ma'lumot beradi. O'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha boshqa tashabbuslarni to'ldirgan holda bunday maktablarning ilg'or tajribalari o'rganiladi va tadbiq etiladi. UNICEFning maktab binolarini universal loyihalash bo'yicha yo'riqnomasiga asoslanib, nogironligi bo'lgan bolalar uchun qulay infratuzilmaga ega maktablarni loyihalash, shuningdek, Toshkent shahridagi oddiy maktabda tegishli ishlarni amalga oshirishni UNICEF qo'llab-quvvatladi. Bu inklyuziv maktablar sonini yanada oshirishda model bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur jarayon maktablarni qurilish va jihozlanish hozirda amal qilayotgan standartlarini ko'rib chiqish uchun asos bo'ldi. Bu esa Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi vazirligiga 2027 yilga qadar barcha yangi va ta'mirlangan maktablarning 20 foizida bunday sharoitlarni ta'minlash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga yordam beradi. **Inklyuziv ta'lim** hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy

olishi kerak. O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'i nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Ba'zan tengdoshlarimiz, maktabdoshlarimiz orasida yoki mahallada imkoniyati cheklangan bolalarni ko'rib qolsak, tushunib-tushunmasdan uni ajratib qo'yishga, u bilan muloqot qilmaslikka harakat qilamiz. Bu noto'g'ri, aslida ular bilan o'rtoq bo'lib, bir jamoa bo'lib yashasak, ularning baxtli hayot kechirishlariga hissa qo'shishimiz mumkin.

Jamiyatda har bir bola baxtli bo'lishga haqli! Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan 86 ta maktabda 22 mingdan ortiq, sanatoriy turdagi maktab-internatlarda 6 mingdan ortiq o'quvchi, uy sharoitida esa 13 mingdan ortiq o'quvchi ta'lim oladi. Hozirda O'zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limga jalb etilishi rejalashtirilmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, barcha sohalarda bo'lgani kabi, bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida ham chuqur islohotlar va o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi va umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta'minlashi lozim UNICEFning O'zbekistondagi eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri e'tibordan chetda qolgan bolalarni inklyuziv ta'lim bilan qamrab olishdir.

Muhim ijobiy natijalar bilan bir qatorda tengsizlik hali ham davom etayotganini ko'rish mumkin. Bu, ayniqsa, qishloq joylaridagi maktabgacha yoshdagi bolalar va nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan seziladi. UNICEF ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratib, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. F.U. Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyot. Chirchiq-2022.
2. R.Sh.Shomaxmudova,
3. L.R. Mo'minova, R.Sh.Shomaxmudova, Z.M.Axmedova. Inklyuziv ta'lim, Toshkent-2019
4. www.tdpu.uz